# Termiz shahrida ham  “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasi boʻlib oʻtdi.



Termiz shahrida ham  “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasi boʻlib oʻtdi.

Termiz shahrida “”Navroʻz  umumxalq bayrami munosabati bilan mamlakatimiz boʻylab tashkil etilgan “Yangi nafas” sport musobaqasida  besh mingdan ortiq 7 yoshdan yetmish yoshgacha boʻlgan surxondaryolik ishtirok etdi.

Marofonga start berilgan Alisher Navoiy koʻchasidagi “Surxon arena" sport majmuasida boʻlib oʻtgan tantanali tadbirda soʻzga chiqqanlar yigʻilganlarni “Navroʻz” umumxalq bayrami bilan tabriklab, musobaqa ishtirokchilariga muvaffaqiyat tiladi.

Ko‘p ming yillik tarixga ega bayramning milliy qadriyat va urf-odatlarimizni keng tarannum etish hamda xalqimiz orzu-umidlarini ruyobga chiqarishdagi ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Vohada yangilanish va yasharish bayrami oldidan o‘tkazilgan marofonga alohida tayyorgarlik ko‘rilib, musobaqa qatnashchilari uchun barcha sharoit yaratildi. Ularning xavfsiz, erkin yugurishi uchun bellashuvga start berilgan Alisher Navoiy ko‘chasidan "Bolajon bog‘i"i hududidagi finishgacha bo‘lgan uch kilometr masofada obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Qatnashchilarning yo‘l harakati, jamoat tartibi, yong‘in va boshqa xavfsizligini ta’minlash uchun zarur choralar ko‘rildi.

Image not found or type unknown

Marofon yakunida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi bellashuv g‘oliblari  diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Image not found or type unknown